



SOZ SEHRI

Saydillayeva Gulzoda Shokirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Musika ta'limi va san'at mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10603108>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-January 2024 yil

Ma'qullandi: 28-January 2024 yil

Nashr qilindi: 31-January 2024 yil

KEY WORDS

Musika madaniyati, cholg'u ijrochiligi, soz, urf-odat, maqom.

ABSTRACT

Mazkur maqolada musiqa madaniyatida soz sehri ya'ni musiqa cholg'ularining ahamiyati va xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

O'zbek milliy musiqa san'ati juda qadimiy tarixga ega. Buni milliy asarlarimizning, cholg'u sozlarimiz va kuylarimizning mukammalligidan bilishimiz mumkin. Musika san'ati ijrochiligida an'anaviy xonandalik boshqa yo'nalishlarga nisbatan keng qamrovli, yetakchilik xususiyatiga ega yo'nalishdir. Musiqaning mukammalligi, sehri, zabardastligi hamda ifodaviyligi xonanda talqinida to'laqonli ifodalanishi muqarrar. Shu bilan birga inson ovozi jamiki sozlarning asosidir. Tarixda nimaiki yaratilgan bo'lsa, kashf etilgan bo'lsa, musiqiy cholg'ular namunasida bo'lsa, unga, albatta, inson ovozi ibrat bo'lgan. Shu bois, inson ovozinin imkoniyatlari, sir-u sinoatlari, turli mezonlariyu behisob jozibalari bashariyatni hayratga soladi. Bu asrnlarni idroklash uchun kashfiyotlar, turli urinishlar, ilmiy va ommabop tadqiqotlar olib borilgan. Bu jarayon zamonamizda ham o'z oqimida davom etib, turli yo'nalishlarda izlanishlar olib borilayotganligi quvonarlidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini izchil rivojlantirish, jahon miqyosidagi ijobiy tajriba va tendensiyalar, yutuq va natijalarni har tomonlama chuqur o'rganish asosida madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Milliy mumtoz musiqamiz, xususan maqomlarimiz qadimdan o'zining ma'lum qonun qoidalari asosida rivojlanib, takomillashib kelgan. Ulardagi mezonlar esa pardalar uyushmasi va uning zaminida bitilgan kuy, ohanglar uyg'unligi, vazn, usul tartibi bilan belgilanadi. Isxoq Rajabov "Maqomlar" nomli ilmiy monografiyasida shunday so'zlarni keltirgan: "Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqiy boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy hamda tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan."¹

¹ ИСХОҚ РАЖАБОВ МАҚОМЛАР ТОШКЕНТ 2006.

Ma'lumki, mumtoz musiqiy merosimizning eng sarmahsul qismini maqom ijodiyoti tashkil etadi. Uning tarkibiga turli davrlarda bastakorlar tomonidan ijod etilgan har hil xajmli mukammal namunalar kiritilgan. Ular bugungi kunga qadar xalqimizning buyuk shaxslari, sozanda-yu xonandalari tomonidan ko'z qorachig'idek asrab avaylab kelinadi. Xalqimizning musiqa boyliklari juda ham ko'p qirrali, sarmazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz kishiga quvonch, xursandlik bag'ishlaydi, og'ir damlarni yengil qiladi. U insonning oliyjanob fazilatlarini, his - tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga ega. Xalqimizning o'lmas musiqa xazinasi - maqom janri o'zbek va tojik xalq musiqa merosida alohida o'rin tutadi.

Musiqa ijrochilik san'ati azal-azaldan o'zining sirli dunyosi bilan tinglovchilarni lol qoldirib kelgan. Bu hayrat ohanglarning turli holatlarga mos kelishida, tushkunliklarga yechim topishida, hastaliklarni davolashida, dunyoning ajoyibot olamini idroklashida hamda doimo tetiklik bilan xush kayfiyatda yurishlarida o'zini namoyon etib kelgan. Shu bois bo'lsa kerak hazrat Navoiy o'zining «Mahbub-ul qulub» asarlarida «Ruh xush ovozdin ozuqa Ko'ngil quvvat oladi» deb bejiz aytmaganlar. *Musiqa*ning *sehri ohangda*. Ohangning siru sinoatlari esa cholg'uda. Cholg'uning mo'jizasi, albatta ijrochidir. Bir cholg'uni ikki ijrochi hech qachon o'zidek bir xil tarannum ettira olmaydi. Zero, tarannum kishining qalbi bilan tutashadi va o'z dardini ohanglarga ulaydi. Musiqa dunyosida insonning ovozi eng mukammal cholg'u ekanligi hech kimga sir emas. Qadim zamonlardan ovoz talqinidagi xonishlar turli yo'nalish hamda uslublar bilan boyib kelgan. Ovoz Alloh tomonidan deyarli barchaga ato etiladigan ulug' ne'matlardan biridir. Zero, ular orasida tanlanganlari sirli-jozibali ovoz sohibidirlar.

Xalqimizning tarixiy shakllangan urf-odat, an'analari, orzu-umidlari, falsafiy tafakkurini o'zida ifoda etgan milliy qadriyatlari silsilasida san'at, madaniyat, musiqa o'rni, uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari g'oyatda ulkan. Bu ulkan san'atning tur va yo'nalishlari qatorida xalq musiqa ijodi alohida mavqega ega bo'lib, unda xalq hayotining barcha qirralari, o'zining betakror, badiiylashgan in'ikosini topadi.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o'rin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog'liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g'ijjak kabi xalq cholg'ularining oilaviy namunalari yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib musiqiy cholg'ularning turli yo'nalishlarga mos, xilma - xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda an'anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qo'llanilmoqda. Qayd etish joizki, cholg'ular, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal - azaldan bir - birini to'ldirib, rivojlanishiga va takomillashishiga zamin yaralib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholg'ular ko'lamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan. Kasbiy musiqa ijodiyoti va uning rivoji aynan cholg'ular bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularning rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

XX asrga kelib xalq ijrochilik amaliyotida ommalashgan cholg'ularni o'rganib tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Buni Abdurauf Fitrat o'zining ijodida boshlab berib, qimmatli

ma'lumotlarni bayon etadi. Shundan so'ng musiqashunos olimlar cholg'ushunoslik ilmining rivojida bir qator samarali tadqiqotlar olib boradilar. V.Belyayev, F.Karomatov, T.S.Vizgo, A.Malkeevalar shular jumlasidan bo'lib, ular O'rta Osiyo musiqa cholg'ushunosligi sohasining rivojiga samarali hissa qo'shdilar. Ularning tadqiqotlarida an'anaviy cholg'ular musiqiy madaniyatning asoslaridan biri ekanligi va xalq ma'naviyatining go'zal an'analarini o'zida mujassam etib kelayotganligi yoritilgan.

Milliy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, ulardan turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlari, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan. Ko'p asrlik ijrochilik amaliyoti esa (xalq va an'anaviy) cholg'ularni guruh bo'lib ijro etilishini ham taqozo etgan. Shunga binoan cholg'ular sozandalar tomonidan bir – birlariga mos o'z turlari va ovoz imkoniyatlari doirasida guruhli tarkiblar tuzilib amaliyotda qo'llanilib kelingan. Karnay, surnay, nog'ora va doyra tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi ya'ni shakl – tuzilishlari tarkibiy jihatlari, nomlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan O'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritila boshlanadi. Demak, O'rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'mini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq, balki olimlarning e'tiborini ham qozongan. Bu jarayonni O.Matyokubov «*Maqomot*»² kitobida quyidagicha bayon etadi: "Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zahirida musiqiy asboblarning ijrochilik faoliyatini ob'ektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi". Forobiy ta'biri bilan aytganda, cholg'u asboblarning shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga tembr – akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shundan so'ngina cholg'ular olimlar kuzatuv va umumlashmalariga zamin bo'lishi mumkin. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulloh al – Xorazmiy, Zaynullobiddin Husayniy, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iyalar o'z risolalarida cholg'ular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari xususida mufassal so'z yuritganlar. O'rta asr risolalarida cholg'ular takomillashishi hamda rivoji yo'lida qilingan o'zgarishlar, ijrochilik amaliyotida yaratilgan yangi sozlar va iste'moldan chiqqan cholg'ular tasnifatini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. Sahiy Suvoriylar. – T. "Nashr" bosmaxonasi, 2004 y.
2. Абдуллаев Р. Ўзбек мумтоз музикаси. Тошкент. 2006 й.
3. Ro'zimboev S. Xorazm vohasi o'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy- badiiy xususiyatlari. Avtoref. Dis. Ped. nom. –T: 1971 g.
4. Matyoqubov O. «Maqomot» T. 2004,
5. S. Xudoyberganov. "So'z va soz sohibi". Toshkent. "Ilm ziyo" 2014.

² Matyoqubov O. « Maqomot» T. 2004,

6. Matyoqubov O.M. Og`zaki an`anadagi professional musiqa asoslariga kirish. – T.: O`qituvchi, 1983 y.
7. В.беляев « Музыкальные инструменты узбекистана », М. , 1933.
8. ИСҲОҚ РАЖАБОВ МАҚОМЛАР Тошкент 2006.



INNOVATIVE
ACADEMY